

TAYLYAKOVA FERUZAXON SULTANOVNA

**Andijon davlat texnika instituti “Tillar va gumanitar fanlar” kafedrası katta
o‘qituvchisi**

e-mail: Nurislom_2000@mail.ru

IJTIMOIIY JARAYONLAR

MODERNIZATSIYASI PROKSIOLOGIK OMIL SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada modernizatsiya jarayoni praksiologik omil sifatida tahlil qilinadi. Unda modernizatsiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ayniqsa iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, amaliy faoliyatni takomillashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish orqali yuqori natijalarga erishish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada praksiologik yondashuv asosida modernizatsiyaning nazariy va amaliy jihatları ochib berilib, uning tadbirkorlik va ishlab chiqarish jarayonlaridagi samaradorlikka ta’siri asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Modernizatsiya, praksiologiya, samaradorlik, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, boshqaruv tizimi, tadbirkorlik, ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish, amaliy faoliyat.

МОДЕРНИЗАЦИЯ КАК ПРОКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР

Аннотация: В данной статье процесс модернизации анализируется как прaksiологический фактор. В ней освещается роль модернизации в развитии общества, особенно в повышении эффективности экономической деятельности. Также будут рассмотрены вопросы совершенствования практической деятельности, рационального использования ресурсов, достижения высоких результатов за счет модернизации системы управления. В статье на основе прaksiологического подхода раскрываются теоретические и практические аспекты модернизации, обосновывается ее влияние на эффективность предпринимательских и производственных процессов.

Ключевые слова: Модернизация, прaksiология, эффективность, экономическое развитие, инновации, система управления, предпринимательство, производство, использование ресурсов, практическая деятельность.

MODERNIZATION AS A PROXYOLOGICAL FACTOR

Abstract: This article analyzes the process of modernization as a praxiologikal factor. It highlights the role of modernization in the development of society, especially in increasing the efficiency of economic activity. Issues regarding the improvement of practical activities, the rational use of resources, and the achievement of high results through the modernization of the management system will also be considered. The article reveals the theoretical and practical

aspects of modernization based on a praxiological approach, substantiating its impact on the efficiency of entrepreneurial and production processes.

Keywords: Modernization, praxiology, efficiency, economic development, innovation, management system, entrepreneurship, production, resource utilization, practical activity.

Kirish

Bugun insoniyat tez rivojlanayotgan, shiddatkor va ziddiyatli zamonda bir qancha global muammolar qurshovida qolgan. Bunday murakkab sharoitda jamiyat barqarorligini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va iqtisodiy farovonlikka erishishda oilaviy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning iqtisodiy mustahkamligi umumiy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oilaviy tadbirkorlik bugungi kunda kichik biznesning eng samarali shakllaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. U nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki oila a'zolarining daromadini oshirish, ularning mehnatga bo'lgan munosabatini mustahkamlash va mas'uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy an'analar va hunarmandchilikni rivojlantirishda ham oilaviy tadbirkorlikning o'rni beqiyosdir.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham yordam beradi. Chunki o'z biznesiga ega bo'lgan oilalar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lib, turli ijtimoiy muammolarga kamroq duch keladi. Bu esa kambag'allikni qisqartirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va o'rta sinfni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimlari shaklining transformatsiyasi mavjud ijtimoiy birikmalar – oila, mahalla, davlatning miqdoriy nisbati shuningdek, ularning ularning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. "...oilaviy hamkorlik va ijtimoiy omil, psixologik muhit va ijtimoiy-psixologik muhit orqali shakllangan oila instituti nafaqat davlat boshqaruvida integratsiyalashgan, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga mustaqil ijtimoiy tuzilma sifatida xizmat qiladi"[1]. Demak, aholining turli qatlam va guruhlarini

ijtimoiy tizim sifatida birlashtirgan oila instituti davlatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan qat'i nazar, uning asosiy vazifalaridan biri – mamlakatda ishsizlikni kamaytirish va aholining barcha qatlamlari uchun turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yuritish orqali uzoq muddatli inklyuziv rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Mavzuga oid munosabatlarning ilk unsurlari Avestoda oila muqaddas institut sifatida talqin etilib, kishi “o‘z hunariga ega bo‘lishi va mehnat qilishi insonni axloqiy jihatdan poklaydi”[2] deb hisoblangan. Konfutsiyning “Fozil insonni ko‘rganda undan namuna olishni o‘yla, fazilatsiz kishini ko‘rganda undagi kamchiliklar senda ham bormi yo yo‘qligi haqida mulohaza qil,” - degan fikrlari[3], Antik davr faylasuflari jamiyat va oila munosabat-lariga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning qarashlari oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Aflotun o‘zining “Davlat” asarida ideal jamiyat tuzilmasini tasvirlab, unda oilaning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini muhokama qiladi. Arastu esa, “Siyosat”[4] asarida oilani jamiyatning asosiy birligi sifatida ko‘rib, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida uning rolini ta’kidlaydi. Suqrot insonning axloqiy kamoloti va jamiyatdagi o‘rnini oilaviy tarbiya bilan bog‘laydi[5].

Sharq mutafakkirlari oilani jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida ko‘rib, uning axloqiy, ma’naviy va iqtisodiy jihatlariga alohida e’tibor qaratganlar. Abu Nasr Forobiy inson kamoloti va baxti haqida so‘z yuritar ekan, oilaviy tarbiyaning ahamiyatini ta’kidlaydi[6]. Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida ayol shaxsining komilligi, sabr-toqat va kamtarlik kabi fazilatlarini oilaviy tarbiya orqali shakllantirish mumkinligini yozadi[7]. Ibn Sino axloqiy tarbiyaning asoslarini oilada ko‘radi va shaxsning ma’naviy kamolotini oilaviy muhit bilan bog‘laydi[8]. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida oilaviy tarbiyaning jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni shakllantirishdagi rolini yoritadi[9]. Alisher Navoiy insonparvarlik va komil inson g‘oyalarini ilgari surib, oilaning bu boradagi ahamiyatini ta’kidlaydi[10].

MDH mamlakatlari olimlaridan mavzuning iqtisodiy tomonlarini Li Baotszyan, E.V.Romanenko, V.P.Samarina, G.V.Cherezov, E.A.Karpov, V.V.Sinyavskaya, R.R.Versotskiy, I.Yu.Smirnovalar[11] muammoning ijtimoiy-falsa-fiy jihatlarini A.Axmataliyev, V.Sobkin va boshqalar tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini hamda muhim omillarini o'rganganlar.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini S.G'ulomov, Q.Muftaydinov, M.Eshov, M.Ibragimova, K.Kurpayanidi, M.Ashurov ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Mavzuning aynan, ijtimoiy-psixologik, pedagogik va iqtisodiy xususiyatlarini, amaliyotchi olimlardan M.Ortiqova, Sh.Quvondiqov, D.Yuldashev, G.Ochilova, O.Pardayeva tadqiq etishganligi bilan izohlanadi.

O'zbek taniqli faylasuf olimlaridan Q.Nazarov, N.Shermuhamedova, I.Soifnazarov, N.Hakimov, Z.Davronov, L.Muhammadjanova, tadbirkorlik faoliyatining aksiologik va praksiologik xususiyatlarini ochib berganlar, yangi avlod mahalliy faylasuflaridan B.Ganiyev, N.Annayeva, J.Davlatov, A.Sayitxonov, A.Raxmanov, A.So'fiyev va boshqalarning tadqiqotlarini mavzuga yaqinligini keltirishimiz lozim[12].

Tahlil va natijalar.

Ijtimoiy jarayonlarning transformatsiyasi ko'plab omillar ta'siri ostida namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar jamiyat rivojlanishining tabiiy qismi bo'lib, ijtimoiy institutlarning shakllanishi, modernizatsiyasi va innovatsiyalarning joriy etilishida juda katta ahamiyatga ega. "Ijtimoiy jarayonlarning transformatsiyasi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar ta'siri ostida kechib, bu transformatsiya ijtimoiy institutlarning shakllanishi, modernizatsiyasi hamda innovatsion mexanizmlarning jamiyat hayotiga kirib kelishiga olib keladi". Shundan kelib chiqib, ijtimoiy o'zgarishlarning sabablarini to'g'ri tushunish va ularga mos strategik yondashuvlarni ishlab chiqish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga kasb etadi.

Yangilanayotgan jamiyatda oila institutining barqaror rivojlanishi, iqtisodiy samaradorligi, oilada shakllangan ma'naviy muhitga, shakllangan qadriyatlarga

asosidagi mas'uliyatga ham bog'liq. Jamiyatning umumiy tendensiyalar asosida rivojlanishi oila daromadiga hamda ularning moddiy va ma'naviy olamiga ijobiy madad beradi. O'z navbatida, oila a'zolarining ta'lim ma'lumoti, muayyan kasbni egasi ekanligi shuningdek, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi uchun uning kelajagini o'ylash, samaradorlikni ko'payishi, ilm-marifat sohibi bo'lish kabi omillarga bo'liqligi ham talab qilinadi. Olimlar fikricha, jamiyatni yacheykasi (hujayrasi) bo'lgan oilaning ijtimoiy-iqtisodiy hamda sosial-madaniy barqarorligi va mustahkamligi, ertangi kunga ishonchi davlatning moliyaviy islohotlariga bog'liq deb uqtiriladi. "... axloqiy ong darajasi past bo'lgan jamiyatda oila instituti barbod bo'ladi yoki qadrsizlanadi, oilaviy munosabatlar barbod bo'ladi, axir, mustahkam oila davlat va butun jamiyatning tayanchidir"[13].

Bu borada turli davlatlarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda ularning amaliyotga tatbiq etilishi bir-biridan farqli bo'lganligi bois faylasuflar, iqtisodchilar, siyosatchilar va ekspertlar orasida ularning qanchalik samaradorligi qizg'in bahs va munozaralarga sabab bo'lishi kuzatiladi.

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan oilalarning ehtiyojmand qatlamiga ajratilayotgan maqsadli moliyaviy mablag'lar to'g'ri va adolatli yo'naltirilgan holatlarda aholining bandligini ta'minlash, turmush darajasi va farovonligini oshirish hamda tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirishda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida mazkur imtiyozlar va moliyaviy ko'maklar boshqa ijtimoiy-iqtisodiy institutlar bilan parallel ravishda rivojlantirilmoqda. Birgina Qirg'izistonda keyingi yillarda oilaviy tadbirkorlik islohotlar transformatsiyasida muhim konsepsiya sifatida rivojlanmoqda. Bu davlatda oilaviy tadbirkorlik faqatgina daromad manbai sifatida emas, an'anaviy ijtimoiy tuzilmalarning zamonaviy iqtisodiyotga integratsiya shakli sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu falsafiy tomondan jamiyatning o'z-o'zini tashkil qilish, mahalliy darajadagi ijtimoiy birliklar faoliyatini samaradorlik vositasi deb ham baholash mumkin. 2024-yilda Qirg'iziston davlati ijtimoiy himoyaga muhtoj 20

ming oilalarning har biriga 1,200 AQSh dollaridan subsidiya ajratdilar. Mazkur mablag'lar oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish yoki mavjudlarini faoliyatini kengaytirishga yo'naltirildi. Bu siyosiy strategiya "Bir makon – bir mahsulot" konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi, barcha hududiy iqtisodiy birliklar va resurslarning samarali ishlatilishiga turtki bo'ldi.

Qirg'izistonda an'anaviy hunarmandchilik bilan zamonaviy texnologiyalar sintezlanish davrini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Tumar Art Group" kompaniyasi sovet davridan qolgan hunarmandchilik uskunalarini zamonga integratsiya qilib, global onlayn savdo bozorida ishtirok etmoqda. "Bu kabi tajriba oilaviy tadbirkorlikni milliy merosni saqlash va uni iqtisodiy aktivga aylantirish vositasi sifatida baholash imkonini beradi" [14]. Mazkur mamlakatda oilaviy tadbirkorlikni ijtimoiy tadbirkorlikning shakli sifatida yo'lga qo'yish tajribalari ham mavjud. Misol uchun, Archa-Beshik qishlog'ida ayollar tashkil etgan "Bolalarni rivojlanish markazi" mazkur yo'nalishda ijtimoiy ehtiyojlar bilan birga iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib bormoqda. Bu tendensiya "oilaviy tadbirkorlikning ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalaridagi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashdagi o'rnini ko'rsatadi"[15]. Bundan ko'rish mumkinki, Qirg'izistonda ham oilaviy tadbirkorlik iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarida mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi faol ijtimoiy institutga aylanmoqda. Bugungi kunda oilaviy tadbirkorlik ijtimoiy barqarorlik, madaniy identitet va iqtisodiy o'sishni birlashtirgan fenomen sifatida faoliyat olib bormoqda.

Qozog'istonda ham oilaviy tadbirkorlik cheklangan iqtisodiy faoliyat turi emas, balki jamiyatni ontologik va madaniy qatlamlarida mustahkam o'rinishayotgan ijtimoiy hodisaga aylanmoqda. Buni endi birgina iqtisodiy manfaat nuqtai nazardan emas, balki shaxs, oila va jamiyat taraqqiyotining yangicha qiyofasi sifatida anglash mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish Qozog'istonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Masalan, "2024-yilda yangicha tahrirda ishlab chiqilgan "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonun nafaqat iqtisodiy mexanizm sifatida, balki oilani

ijtimoiy institut sifatida mustahkamlashga xizmat qiladigan konsepsiyani o'z ichiga oladi"[16]. Bu esa davlat oilani faqat ijtimoiy makon birligi sifatida emas, balki iqtisodiy faol subyekt sifatida ham ko'rmoqda.

Mazkur jarayonda ayollarning ishtiroki diqqatga sazovordir. Ayollar tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy mustaqillik bilan birga, jamiyatda gender munosabatlarini qayta ko'rib chiqishga ham sabab bo'lmoqda. "UN Women tomonidan qo'llab-quvvatlangan markazlar orqali minglab ayollar o'z salohiyatini ochib bermoqda[17]", bu "ayol shaxsining iqtisodiy emas, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham qayta shakllanishiga olib kelmoqda".

Mamlakatda oilaviy tadbirkorlik orqali tashkil etilgan milliy hunarmandchilik san'ati yangilanayotgan jamiyat tafakkurida yangicha yondashuvlarni talqin etmoqda. Masalan, "qadimiy "biz keste" kashtachiligi yosh san'atkorlar tomonidan innovatsion estetikada tiklanmoqda". Bu o'z navbatida, jamiyatda madaniy va ma'naviy qadriyatlarning renessansiga xizmat qilmoqda. San'at bilan ishlab chiqarishning bir mehnat mahsulida uyg'unligi jamiyatda "go'zallikka oshno qalblar" tamoyilini ilgari surmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasida yurtimizda oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, oilada zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa yo'llar bilan qo'llab-quvvatlash darajasini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[18] – deb ta'kidlaydi.

Tadbirkorlik faoliyatining yangi tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonalar tashkil etish bilan belgilandi. Oilaviy korxonalar o'zining tuzilish shakli, javobgarlik masalalari va faoliyat doirasi bo'yicha xususiy korxonaga biroz yaqin bo'lsada, biroq uning ta'sischilari oila a'zolaridan iborat bo'lishligi, ishtirokchilarning kamida ikki kishidan tashkil etilishi, faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanishi, faqat kichik tadbirkorlik subyekti doirasida tuzilishi, boshqaruvda umumiy yig'ilishning ustuvor vakolatligi jihatlaridan uning mustaqil tashkiliy-huquqiy shakl sifatida o'ziga xos sifatlarini ko'rsatadi. Oilaviy korxonaning ta'sis hujjati mazkur korxonaning

barcha ishtirokchilari tomonidan tuziladigan ta'sis shartnomasidir. Xususiyl korxonada esa ta'sis hujjati uning ustavidir. "Xususiyl korxona to'g'risida" gi Qonun 12-moddasining 3-qismiga asosan, xususiyl korxonaning ustav fondi shakllantirilayotganda mulkdor o'z oila a'zolarining umumiy mulki hisoblangan mol-mulkni korxonaga berayotgan bo'lsa, ushbu mol-mulkning barcha mulkdorlaridan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi deb belgilangan.

Oilaviyl korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriyl asosda, oilaviyl korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Bunda mulk egalari hisoblanuvchi oila a'zolari qaysi tashkiliyl-huquqiyl shaklni tanlashlariga bog'liq. Ular o'z oila imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, yo o'z ulushlarini xususiyl korxonaning mulkdori hisoblanuvchi oila a'zosiga o'tkazadi, uni boshqarish va faoliyat yuritishida ishtirok etmaydi, yoki bo'lmasa, o'z ulushi bilan oilaviyl korxona ustav fondini shakllantirish asosida uning faoliyatida ishtirok etadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi oilaviyl tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi hisoblanadi[19]. Qonunchiligimizga asosan, yakka tartibdagi tadbirkorlik esa xodimlarni yollash huquqisiz, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviyl huquq negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki o'rtasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, urning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Xususiyl korxona – bu ko'p jihatdan yakka tartibdagi tadbirkorlikning ijobiy xususiyatlarini saqlab qolgan va uning cheklanishlaridan ozod bo'lgan tashkiliyl-huquqiyl shakldir[20]. Haqiqatdan ham ushbu fikrga qo'shilgan holda, oilaviyl tadbirkor – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuziladigan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot vakili emas, balki jismoniy shaxs, chunki u

xodimlarni yollay olmaydi. Oilaviy korxona egasi, ya'ni oilaviy tadbirkor faqat o'z oila a'zolarini va o'ziga yaqin hisoblangan qarindoshlarini ishlab chiqarishiga jalb etishi mumkin.

Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun ixtiyoriy asosda, ishtirokchilarning ulushli yoki umumiy mol-mulk, shuningdek, har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Ushbu korxona faoliyati ishtirokchilarning shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona faqat yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadi. Mazkur korxona ishtirokchilari va yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi lozim.

Dissertatsiyada o'zbek oilalarida ijtimoiy-madaniy jarayonlar transformatsiyasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillari falsafiy tahlil qilingan. Iqtisodiy siyosatimizning asosiy tamoyillaridan biri – har bir fuqaro boy bo'lsa – davlat boy bo'ladi, har bir oila farovon bo'lsa – mamlakat farovon bo'ladi[21], – degan qarash, “Har bir oila – tadbirkor” g'oyasini izchillik bilan hayotga tatbiq etish, kambag'allik darajasini qisqartirish ijtimoiy tabaqalashuvning xavfsizlik me'yorlaridan yuqori bo'lmasligini ta'minlash, muhtoj oilalarni o'rta daromadlilar qatoriga o'tkazish siyosati oilalardagi ijtimoiy faollik, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarga katta ta'sir qildi.

Bundan tashqari, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontekstida “Har bir oila – tadbirkor” dasturi muhim strategiya sifatida baholanmoqda. Mazkur dastur falsafiy talqinda inson erkinligi, halol mehnatga munosabat va ijtimoiy hayotda oilaning o'rnini qayta tadqiq etish imkonini yaratadi. Eng avvalo, dasturning asosiy tamoyili – bu shaxsning mas'uliyat falsafasidir. O'zbek faylasufi M.Xayrullaev buni shunday izohlaydi: “Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega inson – bu o'z hayotini o'zgartirishga intiluvchi shaxsdir. Bunday odamlar jamiyatda innovatsion tafakkurni shakllantiradi” [22]. Dastur har bir oilada fuqaroni faol iqtisodiy subyektga aylantirib, ularni passiv

ijtimoiy muhtojlikdan, faol iqtisodiy samaradorlik subyektiga aylantirishni nazarda tutadi.

Dasturning falsafiy negizida mehnatga munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi B.Ismoilov ta'kidlaganidek: "Mehnat orqali inson o'zini anglaydi, tafakkur orqali esa maqsadga erishadi"[23]. Shuningdek, ushbu dastur mohiyatiga ko'ra mehnatni iqtisodiy faoliyat hamda insoniylikni anglash sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, oilaning ijtimoiy-falsafiy mavqei qaytadan mustahkamlandi. V.Alimasov buni shunday keltiradi: "Oila – kichik jamiyat bo'lib, undagi iqtisodiy faollik milliy iqtisodiy mustaqillikning ildizidir"[24]. Bundan ko'rinadiki, oilaviy tadbirkorlik – bu moliyaviy barqarorlik hamda jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi falsafiy birlik hisoblanadi.

Shuningdek, dastur asosida erkinlik va tashabbusni qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy ong shakllanadi. M.Baratov so'zlariga ko'ra: "Tadbirkorlik – bu faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki o'zligiga ishonch, erkinlik va javobgarlik mezonidir" [25]. Bu o'z navbatida insonni jamiyatda ijtimoiy mavqeini kengaytirib, uni qadriyatlar bilan faoliyatga undaydi. Shu ma'noda "Har bir oila – tadbirkor" davlat dasturi falsafiy ma'noda jamiyatda erkinlik, mas'uliyat, mehnat, inson qadri va oilaviy barqarorlik kabi g'oyalarni mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bu milliy taraqqiyotda falsafiy tayanchga aylanmoqda. Oilaviy biznesni boshqarish eng qiyin sohalaridan biridir boshqaruv, chunki ishlab chiqarish jarayonida muayyan oila ichidagi rollarni bajaradigan kishilar birlashadilar.

XXI asrda faylasuflar tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga, uning muhim xususiyatlariga, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi rolga yanada jiddiy e'tibor bera boshladilar. O'z biznesida muttasil muvaffaqiyatlarga erishayotgan tadbirkorlarning shaxsiy xususiyatlari jiddiy o'rganilmoqda, tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Tadbirkorlikka yangicha nuqtai nazarlar bildirilmoqda, yetarli darajada baquvvat biznes falsafasi shakllanishda davom etmoqda. Misol uchun, faylasuf

F.Xayyekning fikriga asosan, “tadbirkor iqtisodiy subyekt sifatida ijtimoiy ong va erkin irodaga ega bo‘lgan shaxsdir.

Shu bilan bir qatorda amerikalik olim J.Shumpeterning fikricha, “Tadbirkorlik muayyan kasb yoki mutaxassislik emas, balki insonning ijtimoiy-psixologik holati va tafakkur shaklidir. Uni vaqtincha holat sifatida emas, balki doimiy yangilanish, tashabbus va javobgarlikka asoslangan ongli hayot tarzi sifatida tushunish lozim. Shu sababli, tadbirkorlik ruhiy va axloqiy barqarorlikni talab qiladi, aks holda bu holatda uzoq vaqt qolish mumkin emas”[26]. Shumpeterning asarlarida tadbirkorlik nazariyasi va amaliyotining eng muhim muammolari bayon etilgan bo‘lib, ularni o‘rganish rossiyalik tadbirkorlar uchun katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, tadbirkorlarning mohiyati, ularning shaxsiy fazilatlari, faoliyat motivlari va boshqalar haqidagi Shumpeter ta’limoti katta qiziqish uyg‘otadi. Shumpeterning fikriga ko‘ra, tadbirkorlar alohida xususiyatga ega bo‘lgan insonlar bo‘lib ular doimo yangicha tafakkur qiladilar, amaliyotda yaratadilar. Bu mavjud hodisalardan ko‘ra murakkabroqdir. “Shuningdek, ijtimoiy muhit, xususan, iqtisodiyotga yangi narsalarni kiritish niyatida bo‘lgan har bir kishi yuksak axloq egalaridir deb ta’kidlaydi”.

Biznes va oilaviy tadbirkorlik tavakkalchilik qilishga tayyor bo‘lgan bilimdon va jasoratli shaxslar va oilalarni ro‘yobga chiqaradigan vosita va muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Oilaviy tadbirkorlikni boshlash, oilaviy korxonani tashkil qilish iqtisodiy murakkab sharoitga tushib qolgan oilalar uchun qiyin vaziyatdan chiqish, hayotda yangi porloq istiqbollarni ochish imkoniyatidir. Bunday oilalarning ko‘payishi mahalla, qishloq va umuman hududning ham barqaror rivojlanishi, gullab-yashnashi uchun yo‘l ochadi.

Katta shaharlarning rivojlanishi va istiqboli birinchi navbatda, yirik ishlab chiqarish korxonalarining mavjudligi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga bog‘liq bo‘ladi. Kichik shaharlar, tuman markazlari, qo‘rg‘on va ovullarning rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli birinchi navbatda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida tuman va qishloqlarda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi umuman olganda bir tekis bo‘lsa ham, ba’zi hududlarda ahvolning notekis ekani, mozaika xususiyatiga ega ekani ko‘zga tashlandi. Ba’zan yonma-yon joylashgan qishloqlarda aholi bandligi ko‘rsatkichlari, aholining jon boshiga daromadi, qishloqlarning ko‘rinishi, obodligi bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Bunday holatning sabablarini o‘rganganimizda, rivojlangan va obod qishloqlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgani, mahalla oqsoqollari va faollari, qishloq fuqarolar yig‘ini raislari va faollari bu masalaga jiddiy e‘tibor berayotgani ma’lum bo‘ldi. Ba’zan shunday hollar ham uchradiki, yonma-yon joylashgan ikki qishloqning birida ishsizlik darajasi ancha yuqori, ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarning soni ko‘p. Qo‘shni qishloqda esa buning aksicha, oilaviy korxonalar soni ko‘p, ishsizlar va ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalar deyarli yo‘q. Bunday qishloqdagi xususiy biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlari o‘zlarining ham qishloqlarini ish bilan ta’minlashdan tashqari, qo‘shni qishloq aholisini ham ishga jalb qilmoqda. Mana shunday hududlarda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rahbarlari, mahalla oqsoqollari va qishloq fuqarolar yig‘inlarining raislari oldida turgan birinchi darajali vazifa, bizning fikrimizcha, kam rivojlangan qishloq va qo‘rg‘onlarda tashabbuskor, tadbirkor odamlarni topish, ularning kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari, o‘zlarini namoyon qilishlari uchun ko‘mak berishlari, tegishlari sharoitni yaratishlari va qo‘llab-quvvatlashlaridan iborat.

Tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni maqsad qilib qo‘ygan odamlarning faoliyatni boshlashlarida “mahallabay” usulining tadbiiq qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. “Yagona darcha” usuli esa tadbirkorlarni ro‘yxatga olish va ularning mo‘ljallangan faoliyat turi bilan shug‘ullanishni boshlashlarida byurokratik to‘siqlar, sansalorliklarni bartaraf etdi. Endi kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga qaror qilgan shaxslar uchun “yashil chiroq” yoqildi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, tadbikorlarni ro'yxatga olishda "yagona darcha"ning joriy etilishi mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z zimmasidagi barcha vazifalarni bajarganini anglatmaydi. Bizning fikrimizcha, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari oldida yana bir qator mas'uliyatli vazifalar turibdiki, ularni bajarmay turib hududda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni tez sur'atlar bilan rivojlantirish mumkin emas. Bu vazifalarning birinchisi kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni tartibga solishda ortiqcha aralashuvlardan qochish, ularga maksimal darajada qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Bu sohada amalga oshirish zarur bo'lgan tadbirlarning ko'pchiligini yuqorida tilga olingan "yagona darcha" usuli bajardi. Endi tadbirkorlik faoliyatini boshlashga bel bog'lagan shaxslar ma'lumotnoma va ruxsatnomalar papkasini to'ldirish tashvishidan ozod bo'ldilar[27].

Mahalliy darajadagi davlat organlarining muhim funksional vazifalaridan biri – endigina faoliyat boshlagan tadbirkorlik subyektlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashdan iborat. Hududdagi ishsiz aholini ish bilan ta'minlashni nazarda tutuvchi faoliyat yuritishga kirishgan tadbirkorlar uchun har qanday adolatli muhitni yaratib berish, moliyaviy mexanizmlarini shakllantirish, tijorat banklari orqali zaruriy kredit mablag'lari bilan ta'minlash har bir mahaalliy davlat organlarining kundalik vazifasiga aylanmog'i darkor. Shu tendensiya asosida faoliyat olib borayotgan hududlarda tashkil etilgan oilaviy tadbirkorlik subyektlari ozgina davrda barqaror daromadga ega bolmoqda.

Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik taraqqiyotiga monelik qiluvchi muammolardan biri – mazkur faoliyat turini boshlashni istayotgan oilalarning moliyaviy resurslarga ega emasligidir. Amalda ko'rib turganimizdek, ijtimoiy himoyaga olingan bunday oilalar tadbirkorlik faoliyatiga kuchli ehtiyoj sezsa-da, ularda bu faoliyat uchun zarur boshlang'ich resurs mavjud bo'lmaydi. Aksincha, "moliyaviy imkoniyatlari nisbatan barqaror oilalar esa ko'pincha tadbirkorlik faoliyatiga real ehtiyoj sezmaydilar. Shu boisdan, iqtisodiy tengsizlikni yumshatish va bandlikni oshirish maqsadida, aynan ehtiyojmand oilalarga manzilli kreditlar ajratish mexanizmlarini takomillashtirish kichik biznesni

rivojlantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi”[28]. Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari oldida turgan uchinchi vazifa ular hududni strategik rivojlantirishning yo‘nalishlaridan tadbirkorlarni muntazam xabardor qilishlaridir. Bu vazifa tartibi bo‘yicha uchinchi, deyilgan bo‘lsa ham, aslida u birinchi darajali vazifadir.

Bu vazifani bajarish uchun hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Bundan tashqari, shu yo‘nalishdagi uzoq muddatli dastur ishlab chiqilishi va qabul qilinishi zarur. Bunday strategiyalar va dasturlar ishlab chiqilishi va qabul qilinishidan tashqari hududdagi biznesmen va tadbirkorlar, shu jumladan, tadbirkorlikni endi rejalashtirayotgan va boshlayotganlar ham xabardor qilinishi shart. Chunki, faoliyat yuritayotgan va faoliyatni rejalashtirayotgan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlari o‘zlarining kelajakka mo‘ljallab tuzayotgan rejalarini hududni rivojlantirish strategiyasiga moslashtirmasa, muvaffaqiyatsizlikka uchrashi yoki bankrot bo‘lishi hech gap emas. Ana shu strategiyalar va uzoq muddatga tuzilgan rejalaridan xabardor bo‘lgan biznesmen va tadbirkorlar, jumladan faoliyatni rejalashtirayotgan va boshlayotgan tadbirkorlar, o‘zlarining rejalarini aniq ishlab chiqish va tuzish imkoniga ega bo‘ladilar.

Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xususiy va oilaviy tadbirkorlarning tashabbuslarini moliyaviy jihatdan to‘la qo‘llab-quvvatlash imkoniga ega emas va buning zarurati ham yo‘q. Bu yo‘nalishda tegishli tashkiliy ishlar amalga oshirilsa, sohaning rivojlanishini tezlatish mumkin. Masalan hududda mavjud bo‘lgan o‘rta va yirik korxonalar o‘rta va yirik ishlab chiqaruvchi bo‘lish bilan bir qatorda o‘rta va yirik iste’molchilar hamdir. “...oilaviy hamkorlik va ijtimoiy omil, psixologik muhit va ijtimoiy-psixologik muhit orqali shakllangan oila instituti nafaqat davlat boshqaruvida integratsiyalashgan, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga mustaqil ijtimoiy tuzilma sifatida xizmat qiladi”[29]. Ular o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan xomashyo va butlovchi qismlarning katta qismini chetdan olib keladilar. Agar o‘sha xomashyo va butlovchi qismlarni tayyorlashni mahalliy kichik va oilaviy biznes vakillariga topshirilsa, har ikki tomon uchun ham

foydali bo'lar edi. Tumandagi o'rta miqyosdagi korxona xodimlar uchun ish kiyimlarini tayyorlash uchun chetdagi korxonalarga buyurtma beradi. Shu korxona tumandagi tikuvchilik bilan shug'ullanayotgan korxonaga shu buyurtmani bersa, mabodo korxonadagi ishlab chiqarish quvvatlari yetarli bo'lmagan taqdirda ularga o'zaro manfaatli asosda texnik va moliyaviy yordam ko'rsatsa, hududdagi kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik tezroq sur'atlar bilan rivojlanadi.

Shu misoldan ko'rinadiki, hududdagi o'rta va yirik korxonalar bilan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlari o'rtasida hamkorlik qilish mumkin bo'lgan masalalarni aniqlash va ular o'rtasida hamkorlik rishtalarini bog'lash kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning va ayni paytda o'rta va yirik korxonalarning tezroq rivojlanishiga turtki beradi. Bu vazifani bajarish esa mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari zimmasidagi vazifadir.

Bundan tashqari, yirik va o'rta kattalikdagi korxonalarda fan va texnika yutuqlarini joriy etish asosida ishlab chiqarish unumdorligi o'sadi va ortiqcha bo'lib qolgan shtatlarni qisqartirish zarurati paydo bo'ladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra korxona ma'muriyati shtatlar qisqarishi tufayli ishdan bo'shayotgan xodimlarga moliyaviy hamda ularning ish topishlari uchun ko'mak berishlari kerak. Shunday vaziyatda hududdagi kichik va oilaviy biznesni kengaytirish orqali bo'shayotgan ishchi kuchini ish bilan ta'minlash mumkin. Buning uchun shtatlarni qisqartirayotgan o'rta yoki yirik korxona bo'shayotgan ishchilarni qabul qilishi mumkin bo'lgan kichik va oilaviy korxonaga texnik va moliyaviy ko'mak ko'rsatishi kerak bo'ladi. Yoki bo'lmasa, xodimlarni yangi ish o'rinlariga tayyorlash uchun ularni qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazishga to'g'ri keladi. Yirik va o'rta korxonalar ana shunday qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilishda yordam ko'rsatishlari mumkin.

Xulosa.

Xullas, yirik va o'rta korxonalar bilan kichik hamda oilaviy tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishning turli yo'llari, usullari va shakllari mavjud. Bunday hamkorlik ishlab chiqarish kooperatsiyasi, subpudrat tizimi, klaster yondashuvi, franchayzing, autsorsing kabi mexanizmlar orqali

amalgga oshirilishi mumkin. Ayniqsa, yirik korxonalar tomonidan kichik biznes subyektlariga buyurtmalar berish, ularni xomashyo va texnologiyalar bilan ta'minlash, tayyor mahsulotni sotishda ko'maklashish orqali o'zaro manfaatli aloqalar mustahkamlanadi.

Ushbu jarayonlar har bir hududning iqtisodiy salohiyati, resurslari, infratuzilmasi hamda aholining tadbirkorlik faolligidan kelib chiqib shakllanadi. Shu bois hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda hamkorlikni rivojlantirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, malakali kadrlar yetishmasligi, marketing va logistika bilan bog'liq muammolar kichik va oilaviy tadbirkorlik rivojiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Mazkur muammolarni hal etish esa mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bevosita vazifalaridan biri hisoblanadi. Ular tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish, imtiyoz va preferensiyalar yaratish, biznes infratuzilmasini rivojlantirish, maslahat va axborot xizmatlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, yirik va o'rta biznes vakillari bilan kichik tadbirkorlar o'rtasida samarali muloqot maydonlarini tashkil etish ham muhimdir.

Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida hududlarda "O'rta va yirik biznes tuzilmalarining kichik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki va imkoniyatlari" mavzusida ilmiy-amaliy anjumanlar, davra suhbatlari va seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday tadbirlar davomida ilg'or tajribalar almashiladi, innovatsion g'oyalar muhokama qilinadi hamda aniq amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijada hududlarda tadbirkorlik faoliyati yanada rivojlanib, yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholi farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ahmedova Dilorom Bobomurodovna. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirishning iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2022. – B. 41.

2. Авесто: Яшт китоби. (Т.Махмуд таржимаси.) - Тошкент: Шарк, 2001. - Б. 76.
3. Конфуций. Сухбат ва мулоҳазалар. (Тузувчи ва сўзбоши М.Обидов.) - Тошкент: Янги аср авлоди. 2016. - Б.43.
4. Аристотель. Политика (пер. с др.-гр. С.А.Жебелева). - Санкт-Петербург: Азбука, Азбука-Аттикус, 2024. - С. 352.
5. Сократ. Я ничего не знаю. - Москва: Издательство АСТ, 2024. - С. 160.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. (Tarjimonlar: Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon; Mas'ul muharrirlar: Muzaffar Xayrullayev, Muhammadjon Jakbarov.) - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - B. 320.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. (Tanlangan asarlar. I jild.) - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 656.
8. Sarvar Saidov Ibn Sino risolalarida ruhiy tarbiya masalalari // International scientific journal of Biruni. 2024. № 1. - B. 269-273.
9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. (Tarjimon: Boqijon To'xliyev.) - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2007. - B. 199.
10. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. (Tarjimon: Porso Shamsiyev.) - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. - B. 344.
11. В.С.Собкин. Социология образования. - Москва: Наука, 2020. - С. 412.
12. С.С.Ғуломов. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. - Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2002. - Б. 365.
13. Б.С.Ганиев. Янги ривожланиш босқичида тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари: фалс. фан. док. (DSc) дисс. автореф. - Андижон: 2022. - Б. 64.
14. Акматалиев А. Особенности формирования нравственного сознания в кыргызстане в условиях глобализации Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философских наук Бишкек 2024.- С.3
15. The Verge. "How Kyrgyz viral slippers went global with old Soviet machines". 2024.

16. Open Society Foundations. "Social entrepreneurship and education in Kyrgyzstan". 2023.
17. Institute of Parliamentarism. "A law on family entrepreneurship is being developed by the Institute". 2024.
18. Ш.Мирзиёев Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 72-73.
19. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2004 йил. – № 1-2. – 8-модда.
20. Э.Эгамбердиев, Х.Хўжакулов. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Молия институти, 2003. – Б. 175.
21. Ш.Мирзиёев Янги Ўзбекистон стратегияси – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 138.
22. М.Хайруллаев Фалсафа. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2002. – Б. 211.
23. В.Исмоилов Тил ва tafakkur uyg'unligi. – Toshkent: Fan, 2011. – Б. 57.
24. В.Алимов Siyosiy tafakkur va jamiyat. – Toshkent: Sharq, 2020. – Б. 123.
25. М.Баратов Inson va jamiyat: falsafiy qarashlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – Б. 98.
26. И.А.Шумпетер Теория философского развития. – Москва: Эксмо, 2008. – С. 147.
27. З.А.Толаметова, А.А.Қулматов Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш янги иш жойларини яратишнинг муҳим омили сифатида. // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы № 2, 2015. – Б. 74-85.
28. У.Р.Умурзаков, А.Ж.Ташбойев. Kichik biznes va tadbirkorlik falsafasi (o'quv qo'lanma.) – Toshkent: Sano-standart, 2014. – Б. 480.
29. Б.С.Ғаниев Янги ривожланиш босқичида тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари. – Фарғона: CLASSIC, 2020. – Б. 234.